

**TABIATDAN FOYDALANISH VA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*Ekologiya yo'nalishi 3 bosqich talabalari  
Komiljonova Sevinch Xamidbek qizi  
Qadambayeva Shohida Baxrom qizi  
Yusupboyev Bobojon Azamat o'gili*

**Annatatsiya:** Ushbu maqolamizda , Tabiiy muhitni muhofazalash, uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biriga aylangandir.Xalqning iste'mol mollariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida, yer osti konlarini qazib va artezan suvlaridan foydalanish, dehqonchilik qilinadigan yerlarni, shahar va qishloqlarni kengaytirish, turli xil sanoat korxonalarini qurish bilvosita tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sirni oldindan ko'ra bilib, tegishli chora-tadbirlarni qo'llash, ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish, foydali tomonlarini oshirish choralarini ko'rilmasa, tabiatning jonli qismi o'la boshlaydi.

**Kalit so'zları:** Texnogem, ijtimoiy madaniy, tabiiy resurs, ekologik inqroz, ekologik tizim.

**Asosiy qism.**

Tabiiy muhitni muxofazalash uchun sarflanadigan xarajatlar miqdori uni shikastlab, qayta tiklashga ketadigan xarajatlarga nisbatan kamdir. Shuning uchun xavfli holatlarni oldindan bilish, tegishli choralarini ko'rish, ekologiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Fan-texnika taraqqiyoti biz yashab turgan dunyoni tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yubordi. Ekologik halokat, ayrim hududlarda qilingan tahminlarga ko'ra,oldini olib bo'lmas darajasida xavf tug'dirmoqda. Ammo uning tarqalishini kamaytirish, texnogen va ijtimoiy-madaniy oqibatlar shiddatini to'xtatish zarur.Buning uchun turli soxa mutaxassislari o'zlarining ekologik bilimlarini oshirib,rejalashtirilayotgan ishlari bilan tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rishlari kerak

Tabiiy resurslarning kamayib va yo'qolib borishi hamda tabiiy ob'ektlarning ifloslanishi ekologik tizimlarning buzilishiga va ekologik inqirozlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Chunki kichik va katta ekologik tizimlarning aylanish zanjirida turgan biron-bir tabiiy ob'ektning yo'qolishi yoki uning ekologik xususiyatining ifloslanishi natijasida kamayib kolishi tabiatni o'z-o'zini asrash,tashqi kuchlarga qarshi turish (buferligi) va qayta tiklanish xususiyatlarini yo'qotib qo'yadi.

Ekologik inqiroz - jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabat muvozanatining barqaror buzilishi natijasida atrof tabiiy muhit holatining yomonlashib borishi, davlat boshqaruva va huquqni muxofaza qiluvchi organlarning yuzaga kelgan

holatdan chiqsa olmasliklari hamda ekologik tizimlarni tiklash imkoniyatlarining yo’qolishi, ya’ni tabiiy muhitning inqirozga, ijtimoiy muhitning esa falokatga olib kelinishi.

Tabiatni asrash, hayvonot va nabotot olamiga bo‘lgan g‘amxo‘rlik, tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish zarurligini bilib turib, unga rioya etmaslikni qanday izohlash mumkin? Iste’moldan ortiqcha suv jo‘mraklardan oqishiga yo‘l qo‘ymaslik, suv havzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to‘kmaslik, turarjoylarni ozoda saqlash shunchalik mushkulmi? Sanab o‘tganlarimiz zohiran oddiy bo‘lib ko‘rinishi mumkin, botinan esa yirik muammolarning oldini oladi va xalqimizda atrof-muhitni asrash, muhofaza qilishdek qadriyatlar mujassam.

Ya’ni, odamzod esa mazkur ne’matlarni qadrlab, asrab-avaylab, ularga zarar yetkazmay, tabiatdagi muvozanat va jipslikni buzmasdan ulardan foydalanishi darkor. Buning uchun esa fuqarolarimizda ekologik madaniyat bo‘lishi kerak.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ta’kidlash joizki, butun dunyoda ekologik barqarorlikka erishish, yer yuzining hozirgi holatini tubdan o‘zgartirish uchun xalqaro hamkorlik, ekologik qonun talablarini buzganlik uchun javobgarlikning qat’iy bo‘lishi, aholining yuqori darajadagi ekologik ong va madaniyatini oshirishning o‘zigma kifoya qilib qolmasdan, balki barchamizni mas’uliyat hissi bilan yashashga undashga ham chaqiradi.

Zero, tabiatni muhofaza qilish bu nafaqat Vatan oldidagi farzandlik burchimizdir, balki insoniyatning keljak avlod uchun qoldirishi mumkin bo‘lgan yagona va beabajo xazinasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. H. S. Yo‘ldoshev. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari fanining dasturi. T., 1991.
2. P. Baratov. Tabiatni muhofaza qilish. T., «0 ‘qituvchi», 1991.
3. Sh. Otaboyev. Inson va biosfera. T., «0 ‘qituvchi», 1995
4. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tabiatni\\_muhofaza\\_qilish](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tabiatni_muhofaza_qilish)